



TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI BALIKESIR UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI FIRAT UNIVERSITETI,
YANGLING KASB-HUNAR VA TEXNIKA KOLLEJI**

**“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI:
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI, YECHIMLARI,
TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr

**“BOOKMATY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 811(075)

KBK: 81.1

T 42

Tilshunoslikning amaliy masalalari: zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari, yechimlari, taraqqiyoti va istiqbollari [Matn]: to‘plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 654 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan **Guliston davlat universitetida 2025-yil 29-30-sentabr kunlari** o‘tkazilgan **“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Anjuman zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb ilmiy mavzulari va amaliy masalalariga doir uslubiy ishlanmalarni aks ettirishga qaratilgan.

Mas’ul muharrirlar:

f.f.f.d. (PhD), dotsent A.Axrorov, f.f.d., professor F.Sharipov, f.f.d., professor I.Ermatov, f.f.n., dotsent J.Abdullayev, f.f.n., dotsent I.Pardayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent. M.Latipov, Prof. Dr. Banovsha Mammadova Guloghlan, Prof. Dr. Ertan Örgen, Prof. Dr. Suheyra Demirkol Orak.

Tahrir hay’ati:

A.Axrorov, A.Mamatqulov, Sh.Ro‘ziqulov, Z.To‘ychiyeva

To‘plamga keltirilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

ISBN 978-9910-06-724-2

© Guliston davlat universiteti, 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

soʻzi esa “ozroq” shakliga kelib qolgan.

Demak, tarixiy taraqqiyot natijasida roʻy bergan tildagi baʼzi oʻzgarishlarni Navoiy asarlarida kengroq kuzatish mumkin (Aslini olganda, bu tadqiqot juda katta ish boʻlganligi sabab biz uning mavzuga aloqador elementlariga toʻxtaldik, xolos). Til tarixida qoʻllanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli oʻzgarishlarga uchragan. Bu oʻzgarishlar sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron koʻrinishlari mavjudligini koʻrsatishga, izohlashga, solishtirib koʻrishga, farqlashga asos boʻladi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14 жилд. – Тошкент, 1998.
2. Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода / Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. –М., 1953.
3. Усмонов С. Сўзнинг морфематик ва функционал анализи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 1-сон,
4. Ўзбек тили грамматикаси, II жилдлик, I жилд. –Тошкент, 1975.
5. Оралбаева Н. Аналитические формы глагола в современном казахском языке. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. – Алма-ата, 1971.
6. Юлдашев А.А. Соотношение деепричастных и личных форм глагола в тюркских языках. –М., 1977.

AYRIM LEKSEMALARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA

Yodgorov Hamid Ergashevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
e-mail: hamid.yodgorov@mail.ru
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Har bir xalqning asriy tajribalarini oʻzida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, uni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi, yaʼni ilmiy – texnik taraqqiyot davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal surʼatlar bilan kirib borayotgan XXI asrda adabiy tilning xalq tiliga, dialektlarga taʼsiri katta boʻladi.

Bu, oʻz navbatida, xalq tilida mavjud boʻlgan baʼzi vositalarning unutilib ketishiga, ularning asta – sekin yoʻqola borishiga sababchi boʻladi. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, oʻzbek tilidagi qarindoshlik terminlaridir.

Mazkur maqolada **qalliq** va **boʻydoq** leksemalarining etimologiyasi hamda ularning jinsni ifodalashdagi oʻrni ilmiy yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: etimon, etimologiya, leksema, leksika, qalliq, boʻydoq, termin, terminologiya, rekonstruksiya, maʼno torayishi, gender kabi.

Abstract. Preserving the linguistic wealth of the native language, which embodies the centuries-old experiences of each people, its scientific analysis, and transmission to future generations is one of the important tasks facing modern science.

In the current era of scientific and technical development, in the 21st century, when information technologies are rapidly entering all spheres of life, the literary language has a great influence on the vernacular and dialects.

This, in turn, leads to the oblivion of some means that existed in the vernacular, and their gradual disappearance. One of such lexical layers is undoubtedly the kinship terms in the Uzbek language.

This article scientifically explains the etymology of the lexemes *kalliq* and *bydaq* and their role in expressing gender.

Keywords: etymology, etymology, lexeme, lexicon, *kalliq*, *bydaq*, term, terminology, reconstruction, narrowing of meaning, gender, etc.

Har bir millat tili terminologiyasi o'z tarkibiga ijtimoiy jamiyatning barcha kasbiy faoliyat sohalariga oid maxsus leksikani jam etadi. Bu holat o'zbek tili terminologiyasida ham to'liq kuzatiladi. Terminologiyaning shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bunda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati, taraqqiyoti muhim sanaladi. Chunki har bir millatning turmush tarzi, o'tmishi, xususan, fani, madaniyati, ma'naviyati bir xilda bo'lmaganidek, unga uyg'un tarzda, til taraqqiyoti ham farqlanadi. Bir so'z bilan aytganda, terminologiya bu millatning o'tmishi va bugunini ko'rsatuvchi daliliy ashyolardan biridir.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bu tarixiy haqiqatni birgina o'zbek tili qarindoshlik terminologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar o'zbek tili qarindoshlik terminlari oddiy terminlar yig'indisidan muayyan bir tizim darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini, shakllanish ibtidosida, birinchi galda, o'z qatlam birliklarining o'zni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Terminlarning "aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi" (Abdurahmonov, Mamajonov, 84-85-b.). Demak, terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Bugun faxr bilan ayta olamizki, o'zbek tili dunyodagi eng taraqqiy etgan tillardan bittasi. Bugun bu tilda bir tushunchani, bir voqeani tinglovchiga bir necha shakllarda yetkazish imkoniyati mavjud.

Shunday bo'lsa-da, tildagi so'zlar **gender** (jins) nuqtayi nazardan farqlanmay qo'llanayotgan, boshqacha aytganda, so'zning ma'nosini tushunmasdan nutqqa olib kirish holatlari uchrab turibdi.

Buni **qalliq**, **bo'ydoq** leksemalari misolida ham ko'rish mumkin.

Hozirgi o'zbek tilida ham **kelin**, ham **kuyov** ma'nosida ishlatilayotgan "**qalliq**" so'zi etimologiyasi ham o'zbeklarning qadimgi urf-odatlar bilan bog'liq. Afsuski,

hozirgi o'zbek tilida "qalliq" so'zining ham kelin, ham kuyov ma'nosida ishlatilishi noto'g'ri. So'z etimologiyasiga nazar tashlasak, mazkur so'z yasama ekanligi va u o'zak **"qalin"** va qo'shimcha **"-liq"** dan yasalganligi oydinlashadi. Ya'ni **"qalliq"** so'zi etimologik jihatdan **"qalini to'langan"** degan ma'noni anglatadi. O'zbeklarning qadimgi urf-odatlariga ko'ra, kuyov tomon kelin tomonga ma'lum miqdorda pul-**"qalin"** to'lagan. **"Qalin"** jonli, jonsiz buyumlar asosida to'langan. Buni xalqimizning o'tmishi ham, buguni ham tasdiqlaydi. Ya'ni uzatiladigan qiz mahri, qalini uchun tuya berilgan. Buni quyidagi parcha misolida ko'ramiz:

-Otang menga berarmi, tuya bersam,

Topganimni oldinga uya bersam.

Shuning uchun unashtirilgan qiz **"qalinliq"** (qalin puli to'langan) so'zi bilan yuritilgan. So'z ma'no taraqqiyoti natijasida o'zak va affiks o'rtasidagi chegara yo'qolib, u yaxlit so'zga aylanib ketgan. Hozirda **qalliq** termini yasama so'z sifatida talqin qilinmaydi. Shu o'rinda ayrim misollarga murojaat etamiz: Jimjitlik **qaylig'ining** ko'ngliga tahluka soldi. Xayoli bir yoqlarga ketdi.

-Nimalarni o'ylayapti?

-O'zimizning oqshomlarni.

-Zubaydani-chi?

Qaylig'i kuyovning jon joyidan ushladi (T.Murod. "Oydinda yurgan odamlar").

O'zbek tilida **jins** tushunchasining ifodalanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buni qadimgi turkiy, eski turkiy til materiallari misolida ko'rish mumkin. Nafaqat o'zbek tilida, balki dunyoning barcha tillarida jins tushunchasi lisoniy ifoda etiladi. Faqat ularning ifodalanish usullarida hamda ushbu usullarning u yoki bu tilda qay darajada aks etishida farqlanishlar mavjud, xolos.

Endi **bo'ydoq** leksemasi xususida fikr yuritamiz. O'zbek tilida erkak kishining yolg'izligini, uylanmaganligi holatini ifodalash uchun **bo'ydoq**, ayol kishining turmushga chiqmaganligi holatini ifodalash uchun esa **boshi ochiq, turmushga chiqmagan** kabi iboralarini qo'llash o'rinlidir. **Bo'ydoq** so'zining faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanilishi xususida tilshunos I.Ismoilovning quyidagi mulohazasini keltirish o'rinlidir: "Turkiy tillarda erkak shaxsning xususiyatini, holatini bildirib ko'rsatib, ta'kidlovchi **yigit, chol** singari so'zlari mavjud" (Ismoilov, 1966, 42-43-b.).

Shu so'zlar qatorida **bo'ydoq** so'zi ham bor. Buning leksik ma'nosi ko'pchilik turkiy tillarda uylanmagan yoki xotinidan ajralgan erkak shaxsga nisbatan qo'llanuvchi so'z". Izohli lug'atlarda mazkur so'zga quyidagi ta'rif berilgan: "uylanmagan, xotin olmagan, so'qqabosh" (O'TIL, 2023, -b.). O'zbek tilida **bo'ydoq** so'zi tilda shakllangan an'anaga ko'ra, faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanadi: *Uka, kelinni pastga olib tushing, ko'ngli behuzur bo'layotganga o'xshaydi. Bo'ydoq bo'lganim uchun bu gap qulog'imga ham g'alati, ham allaqanday xush yoqadigan bo'lib eshitildi* (S.Ahmad).

Ammo boshqa turkiy tillarda, xususan qirg'iz hamda boshqird tillarida **bo'ydoq** so'zi yolg'iz ayolga nisbatan ham ishlatiladi. Buni o'sha tillarning izohli lug'atlari ham tasdiqlaydi. Boshqa turkiy tillarda mazkur so'zning ikkala jins vakiliga nisbatan qo'llanilishini **bo'ydoq** so'zining etimologik ma'nosi bilan izohlasa bo'ladi:

bo'ydoq so'zi ikkita, ya'ni **bo'y** va **toq** (yakka) so'zlaridan iborat bo'lib, **yolg'iz odam** degan ma'noni bildiradi.

Qirg'iz va boshqird tillarida esa bu so'zning dastlabki ma'nolari saqlanib qolgan. O'zbek tilida esa mana shu etimologik ma'nodan uzoqlashib, ma'no **torayish** hodisasi ro'y bergan. O'ttizga kirsada, uylanmayotgan Odina yigitga Ziyodulla tomonidan shunday deyiladi: **Bo'ydoq** yurishning ham chegarasi bor (T.Murod. "Oydinda yurgan odamlar").

Tildagi so'zlar jins nuqtayi nazaridan farqlanar ekan, ularni noto'g'ri qo'llashni ijobiy hol, deb bo'lmaydi. So'zni noo'rin yoki noto'g'ri qo'llash axborot oluvchini chalg'itadi, yanglish xulosalarga olib keladi. Shu bilan birga, muloqotga kiruvchilar o'rtasida salbiy oqibatlarning ro'y berishiga xizmat qiladi.

Tilshunos O.N.Trubachev etimologik tadqiqotlar olib borishda so'z ma'nosi asosiy e'tiborda bo'lishini va bu ma'nolar semantik jihatdan qayta rekonstruksiya qilinishi lozimligini ta'kidlaydi (Trubachev, 1984, 239-b.). Mazkur fikr tildagi har qanday birlikning ilk shakli hamda ilk ma'nosi bo'lgan etimonini aniqlash va ko'rsatish masalasiga oydinlik kiritadi. Etimologik tahlilning mazmunidan tildagi har qanday so'z yoki toponimni rekonstruksiya qilish tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan va bugun ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Shunday bo'lsa-da, amalga oshirilgan ishlarning salmog'i bilan chegaralanib bo'lmaydi. Chunki terminlarni tartibga solish masalasini barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti, deb bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov O'., Mamajonov S. (2002). O'zbek tili va adabiyoti jurnali.
2. Ismoilov I. (1966). Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, (2023).
4. Трубачев О.Н. (1984). Приемы семантической реконструкции. Международный симпозиум по проблемам этимологии, исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов.

XALQ MAQOLLARI LINGVOKULTURALOGIYANING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Axrorov Alisher Akbarovich,

Guliston davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: axrorov891115@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqning milliy qadriyati, urf-odatlar, kundalik turmush tarzi, tarixi, madaniyati va ma'naviyatini o'zida namoyon etuvchi, sayqallanib, bugungi kunda og'zaki va yozma nutqida keng qo'llaniluvchi xalq maqollarida milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet tushunchalarining qay tarzda ifoda etilganligi yoritib berilgan. Negaki, xalq maqollari mehnatkashlik, mehmondo'stlik, so'zamollik, andishalik, jasurlik, yaratuvchanlik,